SIRDARYO VILOYATI SHIRIN SHAHAR HOKIMI
Q A R O R I

2022 - yil 25 - fevral 64-9-131-Q/22 Shirin shahar hokimligi

Shirin shahar hududida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida 2022-yil 11-fevral kuni “Xavfsizlik va ravon yo‘l” tamoyili asosida yo‘llarda inson xavfsizligini ta’minlash borasidagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida videoselektor yig‘ilishida berilgan topshiriqlari ijrosini ta’minlash, Sirdaryo viloyati Ichki ishlar boshqarmasi jamoat xavfsizligi xizmati yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasining 2022-yil 2-fevraldagi 10/6-266-sonli, Shirin shahar ichki ishlar bo‘limining 2022-yil 9-fevraldagi 33/130-sonli va Boyovut tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasining 2021-yil 25-avgustdagi 01/219-sonli xatlarini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi 2013-yil 10-apreldagi “Yo’l harakati xavfsizligi to’g’risida”gi O’RQ-348-son Qonuni ijrosi va Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 24-dekabrdagi “Yo’l harakati qoidalarini tasdiqlash to’g’risida”gi VM-370-son hamda 2019-yil 9-apreldagi “Yo’l harakati qoidalariga o’zgartirish va qo’shimchalar kiritish to’g’risida”gi VM-292-son qarorlari hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 25-moddalariga asoslanib, **qaror qilaman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida 2022-yil 11-fevral kuni berilgan topshiriqlari, Sirdaryo viloyati Ichki ishlar boshqarmasi jamoat xavfsizligi xizmati yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasining 2022-yil 2-fevraldagi 10/6-266-sonli, Shirin shahar ichki ishlar bo‘limining 2022-yil 9-fevraldagi 33/130-sonli va Boyovut tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasining 2021-yil 25-avgustdagi 01/219-sonli xatlari ijro uchun qabul qilinsin.

2. Shirin shahar IIB YHXB katta inspektori (E.Bayzakov), Boyovut tuman

yo‘llardan foydalanish UK rahbari (R. Abduvoxidov)larga:

- Shirin shahar hududida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash maqsadida maktablar, maktabgacha ta’lim muassasalari, Energetika kolleji va mahalliy ahamiyatdagi 4K-660 avtomobil yo‘lining 27 km (eski bozor hududi)ga tezlikni kamaytiruvchi (3.24-yo‘l belgilari 50/30 hamda sun’iy notekisliklar) yo‘l belgilarini o‘rnatish;

- 4K-660 avtomobil yo‘lining 29 km qismida “Farhod GES” unitar korxonasi ustida joylashgan ko‘prik kelgusida og‘ir turdagi transport vositalarining harakatlanishi oqibatida nosoz holatga kelib qolishini oldini olish maqsadida ko‘prikning kirish-chiqish yo‘nalishlariga 8 tonnadan yuqori bo‘lgan transport vositalarining harakatlanishi cheklash bo‘yicha yo‘l belgilarini o‘rnatish;

- Shirin shahar hududidagi mahalliy ahamiyatga ega umumfoydalanuvdagi 4K-660a avtomobil yo‘lining 0+070 km. qismi “Janubiy Mirzacho‘l” kanali ustida joylashgan ko‘prik nosoz holatga kelganligi sababli ko‘prikning kirib chiqish-qismida og‘ir turdagi transport vositalarining navbati bilan harakatlanishini tartibga solish;

- shahar hududidagi barcha yo‘l belgilarini tartibga solish, ta’mirlash va yangisiga almashtirish hamda barcha yo‘l chiziqlarini chizish;

- yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘llarda tirbandlikni oldini olish maqsadida shahar hududidagi ko‘p qavatli uylar oralig‘idagi ichki yo‘llarga og‘ir turdagi yuk mashinalarini kirishini taqiqlash va shaharning markaziy ko‘chalarida og‘ir turdagi yuk mashinalarini to‘xtab turishini taqiqlash bo‘yicha yo‘l belgilarini o‘rnatish vazifasi topshirilsin.

3.
Qaror matni hokimlikning rasmiy vebsaytiga joylashtirilsin hamda “Shirin sadosi” gazetasi bosh muharriri (O.Ashurqulov) ushbu qaror matnini “Shirin sadosi ”
gazetasida chop etilishi tavsiya etilsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish shahar hokimi o‘rinbosari Z. Abduvoxidov va Shirin shahar IIB boshlig‘i A. Xolmatovlar zimmasiga yuklatilsin.

Shahar hokimi **S.Sultonov**